

Zuhra Otaqo'ziyeva,

*i.f.n, Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi TATU dotsenti*



Axborot logistikasi va logistikada axborot oqimlari

Zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish sohasi va murojaatlar orqali oxirgi iste'molchi tomon yo'nalish bo'yicha moddiy shaklga ega mahsulotlarning kuchli oqimi harakatlanmoqda. Mahsulot nomenklaturasi yildan-yilga kengayib bormoqda.

Uning harakatlanish jarayonining sifati - ga qo'yiladigan talablar qat'iy lashmoqda: jarayonlar tezkor, aniq, tejamkor bo'lishi kerak. Moddiy oqimlar harakatini ta'minlovchi mexanizmlar ta'sirida alohida bo'g'inlarning yuqori darajadagi muvofiqligi - tirik organizmga xos bo'lgan uyg'unlikka o'xshash uyg'unlik hosil bo'lishi kerak. Bunday muvofiqlik paydo bo'lishining muhim shartlaridan biri axborot tizimlarining mavjudligidir, ular markaziy nerv tizimi kabi kerakli signalni kerakli vaqtida, kerakli nuqtaga tez va tejamkorlik bilan yetkazib berishi kerak.

Logistik tizim faoliyatini ta'minlovchi axborot tizimlarining qurilishi va faoliyatining o'ziga xos tomonlari axborot logistikasining o'rganilishini taqozo qiladi. Axborot logistikasining maqsadi logistikaning umumiy maqsadi bilan, ya'ni uning oltita qoidasi: kerakli mahsulot, kerakli joyda, kerakli vaqtida, zarur miqdorda va zarur sifatga ega, minimal xarajatlar bilan aniqlanadi. Ma'lumki, bu qoidalarning bajarilishi uchun kerakli joyda, kerakli vaqtida, kerakli axborot ham bo'lishi kerak. Bu axborotning miqdori va sifati

qo'yilayotgan talablarga javob berishi, uni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar minimal bo'lishi kerak.

Shunday qilib, axborot logistikasining maqsadi:

- kerakli axborot (moddiy oqimni boshqarish uchun);
- kerakli joyda;
- kerakli vaqtida;
- zarur miqdorda;
- zarur mazmunda ;
- minimal xarajatlar bilan natijaga erishishdir.

Axborot logistikasi vositalari moddiy oqimlarni rejalashtirish, ularni boshqarish va ularni nazorat qilish imkonini berishi kerak. Bundan kelib chiqib, axborot logistikasining asosiy vazifalari quydagiqlarni qamrab oladi:

- logistik ehtiyojlarini rejalashtirish;
- moddiy oqimlar harakati bilan bog'liq yechimlarni tahlil qilish;
- logistik jarayonlarning boshqaruvi nazorati;
- logistik zanjir qatnashchilarining integratsiyasi.

Turli mamlakatlar olimlarining fikriga ko'r'a, axborot logistikasi asosan, ma'lumotlarni uzatish va qayta ishslash vositalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi sababli zamonaviy rivojlanshiga ega bo'ladi. Logistikaning asosiy tushunchalaridan biri – axborot oqimi tushunchasidir. Axborot oqimi – bu logistik tizimda logistik operatsiyalarni boshqarish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan xabarlarning ichki va tashqi muhitni o'rtasida harakatlanishidir. Axborot oqimi qog'oz va elektron hujjatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Logistikada turli ko'rinishdagi axborot oqimlari ajratib ko'rsatiladi (1-rasm):

- tizimlarni bog'lovchi oqimlar ko'rinishiga ko'r'a – gorizontal va vertikal;
- o'tish joyiga ko'r'a – tashqi va ichki;
- logistik tizimga munosabatining yo'nalishiga ko'r'a – kirish va chiqish;
- axborot tashuvchining ko'rinishi bo'yicha – qog'ozli, elektron, aralash;
- zichligi bo'yicha – jadalligi past (1 Mbit/s gacha), jadalligi o'rta (1-2 Mbit/s), jadalligi yuqori (2 Mbit/s dan yuqori);
- davriyligi bo'yicha – doimiy, operativ, tasodifiy, on-line, off-line.

Axborot oqimi moddiydan o'tib ketishi, u bilan bir vaqtida yoki undan keyin bo'lishi mumkin. Bunda axborot oqimi moddiy bilan bir tomonqa yoki unga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lishi mumkin:

- qarama-qarshi yo'nalishda axborot oqimi dan oldinlab ketuvchi, odatda, buyurma haqida ma'lumotga ega bo'ladi;
- to'g'ri yo'nalishda axborot oqimidan oldinlab ketuvchi – bu yuklangan tovarlar kelishi haqidagi ilk xabarlar;
- moddiy oqim bilan bir vaqtida moddiy oqimning miqdoriy va sifat o'lchovlari haqida to'g'ri yo'nalishda axborot uzatiladi;

- moddiy oqim ketidan qarama-qarshi yo'nalish bo'ylab tovarlarning sifati va miqdori natijalari bo'yicha axborot, tasdiqlovchi ma'lumot va noroziliklar o'tishi mumkin.

Axborot oqimi harakatlanayotgan yo', umuman olganda, moddiy oqim harakati yo'nalishi bilan mos kelmasligi mumkin.

Axborot oqim quydagi ko'rsatkichlar:


- paydo bo'lishi manbasi;
- oqim harakati yo'nalishi;
- uzatish va qabul qilish tezligi;
- oqim intensivligi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Axborot oqimini quydagicha:

- oqim yo'nalishini o'zgartirib;
- uzatish tezligini qabul qilishning muvofiq tezligigacha cheklab;
- oqim hajmini yo'lining alohida qismi yoki bog'لامи o'tkazish qobiliyati kattaligiga cha cheklab boshqarish mumkin.

Axborot oqimi vaqt birligida qayta ishlanuvchi yoki uzatiluvchi axborotlar soni bilan o'chanadi.

1-rasm. Logistika axborot oqimlari ko'rinishlari





Biron-bir xabarda bo'lgan axborot miqdorini o'lchash usullari axborot nazariyasi deb nomlanuvchi kibernetikaning bir bo'limida o'rganiladi. Bu nazariyaga asosan axborot miqdori birligi sifatida — bit birligi qabul qilingan. Elektron-hisoblash texnikasi qo'llanilganda axborotlar baytlarda o'lchanadi. Bayt — bu mashina so'zining bir qismi bo'lib, 8 bitdan iborat hamda EHM'da axborotni qayta ishlashtida bir yaxlitlik sifatida qo'llaniladi.

Shuningdek, axborot miqdorining hosila birliklari ham qo'llaniladi: kilobayt, megabayt va gigabayt.

Xo'jalik faoliyati amaliyotida axborot quyidagicha:

- qayta ishlanayotgan yoki uzatilayotgan hujjatlar soni bilan;
- qayta ishlanayotgan yoki uzatilayotgan hujjatlar qatorlarining yig'indilari soni bilan o'lchanishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, iqtisodiy tizimlarda logistik operatsiyalardan tashqari axborot oqimlarini paydo bo'lishi va uzatilishi bilan bog'liq boshqa operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Biroq logistik axborot oqimlari axborot oqimlari yig'indisining muhim qismini tashkil etadi. Misol tariqasida, yirik oziq-ovqat mahsulotlari do'konida axborot oqimlari yig'indisi tuzilmasini ko'rib chiqamiz. Bu yerda o'tayotgan umumiyyajmadi axborotning asosiy (50 foizdan ortiq) qismini yetkazib beruvchilardan do'onga kelib tushadigan axborotlar tashkil etadi. Bu odatda, do'onga kelib tushadigan tovarlarga kuzatuvchilar, tovar-ilova qilingan hujjatlar deb nomlanuvchi, yuqorida keltirilgan belgilariغا muvofiq kirish axborot oqimini tashkil qiladi.

Do'konda logistik operatsiyalar keltirib beruvchilardan tovar olish bilan cheklanib

qolmaydi. Do'kon ichidagi savdo-texnologik jarayon ko'p sonli logistik operatsiyalarni o'z ichiga oladi, ular do'kon ichida qo'llanuvchi axborotlarni uzatish va paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunda do'kon ichida foydalaniладиган hosil bo'lgan axborotlar taxminan 20 foizni tashkil qiladi. Umuman olganda, do'konda qayta ishlanadigan axborotlarning taxminan 2/3 qismini logistik operatsiyalarni boshqarish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan axborotni tashkil qilishi mumkin. Ishlab chiqarish yoki ulgurji savdo korxonalarida logistik axborot oqimlarining ulushi yanada ortiq.

Xulosa qilib aytganda, endilikda «logistik axborot oqimi» atamasidan foydalanish ko'p hollarda, logistik operatsiyalarini boshqarish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan axborotni tashkil qilishi, logistik tizimlarning samarali ishlashtini ta'minlashini unutmaslik kerak. ↗

